

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b.,
yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir
o'rinbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv
fakulteti Moliyaviy huquq kafedrası professori, huquq
doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrası o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrası professori, yuridik
fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası professori
v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi
va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrası
professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni
tashkil etish kafedrası dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrası dotsenti v.b., yuridik
fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrası professori, yuridik
fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrası boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrası
professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi



Nashriyotchi:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Ushbu nashr GIZning "Markaziy Osiyoda huquqiy
davlatchilikni qo'llab-quvvatlash" dasturi ko'magi doirasida
chop etildi.

Dastur Deutsche Gesellschaft für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik
jamiyati) tomonidan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va
taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) buyurtmasi asosida
amalga oshirilmoqda.

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular
hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES
legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических
наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma
bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga
kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga
tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal material-
laridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis
ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X
E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**
Приветственное слово

6 **ЦИКО ЯН**
Приветственное слово

9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**
Приветственное слово

11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДILEВИЧ**
Приветственное слово

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA VOJXONA HUQUQI

13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**
Законодательство об административных
процедурах и судопроизводстве Республики
Таджикистан: опыт и перспективы реформирования

19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**
Комментарий к закону и его роль в судебной
практике: взгляд немецкого судьи

26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**
Применение административными судами
Кыргызской Республики норм законодательства
об административных процедурах, связанных
с досудебным порядком обжалования

35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**
Судебная практика проверки соблюдения
административной процедуры

40 **YUSUPOV SARDORBЕК BAHODIROVICH**
O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning asosiy
prinsiplarini qo'llashning ayrim jihatlar

50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционные основы государственного
управления: некоторые аспекты законодательной
конкретизации

59 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar
to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to'lishi
arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

- 72 **ЛИ АДИК**
Система органов государственного управления
в сфере предпринимательской деятельности
- 80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**
Роль научных позиций в сфере публично-правового
регулирувания и их перспективы в Республике
Узбекистан
- 86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik
prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy
ahamiyati
- 95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**
Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning
o'ziga xos xususiyatlari
- 102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**
Budjet jarayoni va uning bosqichlari
- 110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud
tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari
- 118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning
subyekti sifatida
- 129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVNA**
Saylovga oid nizolarni hal etish usullari
- 135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish
shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish
- 143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**
ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI
A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor
and state dispute resolution
- 156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy
asoslari
- 164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Институт социальной защиты государственных
гражданских служащих: теоретические и
методологические подходы
- 164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН
ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ
ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**

DOI: <https://dx.doi.org/14.91788/tsul.rols.6464.8.sn./KOYI1898>
UDC: 347.9(449)(979.1)

MA'MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA MUTANOSIBLIK PRINSIPINING O'ZIGA XOS O'RNI VA UNING HUQUQIY AHAMIYATI

Jurayev Sherzod Yuldashevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0003-3857-9751
e-mail: sh.jurayev@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'muriy-huquqiy munosabatlarning shakllanishida mutanosiblik prinsipi tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, qonunchilikda va amaliyotda qo'llanishining ayrim nazariy, huquqiy va amaliy masalalari keltirilgan. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda belgilangan normaning ma'muriy-huquqiy faoliyatda va ma'muriy sudlar amaliyotida qo'llanishida vujudga kelayotgan muammolar, xususan, aksariyat hollarda manfaatdor shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda mutanosiblik prinsipining muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, mutanosiblik prinsipini qo'llash bilan bog'liq sud amaliyoti va davlat organlarining faoliyatidan misollar keltirilib, qonunchilik nuqtayi nazaridan mualliflik sharhlari berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlangan mutanosiblik prinsipiga oid normalarni mazmun jihatdan tahlil qilish ularning davlat organlari va xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda qay darajada qo'llanishi, huquqni qo'llovchilar faoliyatida vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimi nuqtayi nazaridan qanday huquqiy mexanizmlar yaratilganligi hamda jahon amaliyotida mutanosiblik prinsipining ahamiyati va o'rni haqida izlanish olib borilgan. Shuningdek, mutanosiblik prinsipiga mualliflik ta'rifi berilib, qonunchilikka tegishli takliflar kiritish haqida xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: mutanosiblik prinsipi, mutanosiblik prinsipi tushunchasi, mutanosiblik prinsipining o'ziga xos xususiyatlari, ta'sir chorası, proporsionallik, ma'muriy ixtiyoriylik.

СПЕЦИФИКА И ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРИНЦИПА СОРАЗМЕРНОСТИ В АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Жураев Шерзод Юлдашевич,
кандидат юридических наук,
доцент кафедры «Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проанализировано понятие принципа соразмерности в формировании административно-правовых отношений, его специфика, некоторые теоретические, правовые вопросы его применения в законодательстве и на практике. Проанализированы проблемы, возникающие при применении принципа соразмерности в административно-правовой деятельности и практике административных судов, нормы, установленные Законом Республики Узбекистан «Об административных процедурах», особенно касающиеся защиты прав и свобод заинтересованных лиц. В дополнение к вышесказанному приведены примеры из судебной практики и деятельности государственных органов, связанные с применением принципа соразмерности, даны авторские комментарии с точки зрения законодательства. Проведён содержательный анализ норм, касающихся принципа

соразмерности, закреплённого в Конституции Республики Узбекистан и Законе Республики Узбекистан «Об административных процедурах».

Ключевые слова: принцип соразмерности, понятие принципа соразмерности, особенности принципа соразмерности, мера воздействия, пропорциональность, административное усмотрение.

THE SPECIFIC PLACE OF THE PRINCIPLE OF PROPORTIONALITY IN ADMINISTRATIVE-LEGAL RELATIONS AND ITS LEGAL SIGNIFICANCE

Jurayev Sherzod Yuldashevich,

Tashkent State University of Law,
Associate Professor, Doctor of Philosophy in Law

Abstract. This article analyzes the concept of the principle of proportionality in the formation of administrative and legal relations, its specifics, and some theoretical, legal, and practical issues of its application in legislation and practice. The problems arising in the application of the principle of proportionality in administrative and legal activities and in the practice of administrative courts and the norms established by the Law of the Republic of Uzbekistan on Administrative Procedures, especially in most cases when protecting the rights and freedoms of interested persons, are analyzed. In addition to the above, examples from judicial practice and the activities of state bodies related to the application of the principle of proportionality are given, and the author's comments from the point of view of legislation are given. A meaningful analysis of the norms concerning the principle of proportionality enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law "About Administrative Procedures". Also the author's definition of the principle of proportionality is given and conclusions are made about making appropriate proposals to the legislation.

Keywords: the principle of proportionality, the concept of the principle of proportionality, the features of the principle of proportionality, the measure of impact, proportionality, administrative discretion.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi e'lon qilingandan so'ng unda belgilangan ko'plab normalarning mazmun-mohiyati kengayib, ayrim sohalarning tegishli qonunchilik bazasini qayta ko'rib chiqish lozimligiga ehtiyoj sezilmoqda. Bu borada Konstitutsiyaning 20-moddasida "Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llanadigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak"ligi belgilanib, konstitutsion norma darajasida mustahkamlab qo'yilgani insonning huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanini anglatadi.

Mutanosiblik prinsipi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida sal avvalroq 2018-yil 8-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-tao-

millar to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida belgilangan bo'lib, unda "ma'muriy ish yuritish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan ta'sir choralari ma'muriy organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak"ligi mustahkamlangan. Bu normadan ko'rinib turibdiki, barcha davlat organlari fuqarolar bilan munosabatda ularga nisbatan qabul qiladigan ta'sir chorasini, birinchidan, ko'zlangan qonuniy maqsadga ega bo'lishi, ikkinchidan, qonuniy maqsadga erishish uchun mos bo'lishi, uchinchidan, qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli bo'lishi va, to'rtinchidan, albat, ushbu chora manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.

Yuqorida keltirilgan ikkita normani mazmunan tahlil qilish asnosida ularning davlat

organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda qay darajada qo'llanishi, huquqni qo'llovchilar faoliyatida vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimi nuqtayi nazaridan qanday huquqiy mexanizmlar yaratilganligi hamda jahon amaliyotida mutanosiblik prinsipining ahamiyati va o'rni haqida izlanish olib borildi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta masalaga e'tibor qaratildi: birinchi, mutanosiblik prinsipi deganda nima tushunilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari; ikkinchi, mutanosiblik prinsipining sud va davlat organlari faoliyatida qo'llanishiga oid mulohazalar; uchinchi, xorij davlatlari huquqni qo'llash amaliyotida ushbu prinsipni qo'llashning o'ziga xosliklari haqida tahlillar olib borildi va tegishli xulosalar qilindi.

Yuqoridagi masalalarga javob topish uchun olimlarning mutanosiblik prinsipiga oid ilmiy ishlari amaldagi normativ-huquqiy va sud amaliyoti hujjatlari tahlil qilinib, tegishli taklif va xulosalarga kelindi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Mutanosiblik prinsipini tahlil qilishdan oldin, umuman olganda, "prinsip" so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlab oladigan bo'lsak, ushbu so'z lotin tilidan "*principium*" – *dastlabki, asos, negiz, ibtido* ma'nosini anglatib, biror nazariya, ta'limot va shu kabilarning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi (Madvaliyev, 2008) bo'lib, davlat boshqaruvi tizimida qonuniyatlar, munosabatlar va uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning in'ikosidir. Bunda "mutanosib" so'zi teng o'lchamli, teng nisbatli va proporsional ma'nosini anglatadi (Madvaliyev, 2006).

Mutanosiblik prinsipining paydo bo'lishi XVIII asrning oxirlarida bir qator Yevropa mamlakatlari politsiya organlarining erkinlik va mulkka tajovuzlarini cheklash maqsadi-

da prinsip sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, shu davrdan boshlab davlat organlarining barcha bo'g'inlari va ommaviy huquqning barcha institutlari munosabatlarida "davlatning harakatlarini cheklovchi asosiy tamoyil" masalasi rivojlanib kelmoqda (Vosskuhle, 2007).

Mutanosiblik prinsipining paydo bo'lishiga huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning poydevori sifatida qaraydigan bo'lsak, davlat organlari faoliyatida ushbu tushunchaning qo'llanishida mualliflar turlicha yondashuvlarni ilgari surishgan. Ushbu prinsipning turli davlatlarda davlat va jamiyat o'zaro munosabatlarining ayrim jabhalarida qo'llanib, ayrimlarida qo'llanmasligi ushbu mamlakatlar qonunchiligida aks etadi.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Rossiya Konstitutsiyasining 55-moddasida insonning huquq va erkinligini cheklash maqsadida ko'rilayotgan ta'sir chorasi mutanosib bo'lishi haqida norma mavjud bo'lib, bunda mutanosiblik prinsipining faqatgina davlat organlarining insonlarga nisbatan jazo chorasini tanlashda foydalanilishi nazarda tutilgan. Bu haqda A.A. Podmarev ham o'zining tadqiqotida mutanosiblik prinsipini konstitutsiyaviylik ma'nosida qo'llab, insonlarning huquq va erkinliklarini cheklash choralari me'yorida, ya'ni sodir etilgan qilmishga proporsional bo'lishini, insonlarning huquqlarini kamsitishi kerak emasligini ta'kidlaydi (Podmarev, 2021). Bu borada yana bir rus olimi N.V. Varlamova ham A.A. Podmarev kabi mutanosiblik prinsipi konstitutsiyaviy prinsip ekanligini ta'kidlab, ushbu prinsip dastlab Yevropa mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining ta'siri ostida rivojlantirilganini qayd etadi (Chirkin, 2011). Ushbu mualliflarning fikrlariga qo'shilsa bo'ladi, lekin bu prinsipning qo'llanishi nafaqat jazo chorasi sifatida, balki davlat organlari bilan xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlaridagi ularning manfaatlariga ta'sir qiladigan har qanday boshqa ta'sir choralari ham aks etishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'muriy huquqning muvaffaqiyatli konsepsiyalarini taqdim qilgan nemis huquqi vakillariga murojaat qiladigan bo'lsak, mutanosiblik prinsipi aksar holatda "maqsad" – "choralar" tamoyili o'rtasidagi munosabatlarda nazarda tutilishi ta'kidlanadi. Bunda nemis olimlari tomonidan mutanosiblik prinsipi ma'muriy huquqda boshqaruv faoliyatidagi ixtiyoriylik chegaralarini baholashda asosiy rol o'ynashi hamda sud nazoratini amalga oshirish chog'ida sodir etilgan "tajovuz" (ta'sir chorasi)ning maqbulligi sifatida qaraladi (Fosskule, 2015).

Aytish lozimki, Germaniya Federativ Respublikasining ma'muriy amaliyotida mutanosiblik prinsipining buzilishi ma'muriy ixtiyoriylikning xatosi sifatida baholanadi va shuning uchun nomutanosib qarorlar har doim ham nafaqat maqsadga nomuvofiq, balki noqonuniy qaror deb topilishi e'tirof etilgan (Pudelka, 2017). Bunda nomuvofiq qarorlarning oldi olinib, xususiy shaxslarning manfaatiga qarshi qaratilgan har qanday qaror noqonuniy deb tan olinishi qonuniy maqsadga erishishning usuli sifatida qaraladi.

Mutanosiblik prinsipi huquqiy davlat prinsipining konstitutsiyaviy huquqda belgilangan ajralmas qismidir. Hech qanday qaror (ixtiyoriylik bilan qabul qilingan) qonunda nazarda tutilgan huquqiy asosning maqsadiga nomutanosib bo'lishi mumkin emas (Fosskule, 2015). Bunda mutanosiblik quyida ko'rsatilgan belgilar asosida tekshirilishi mumkin (Lerche, 1999):

- qonuniy maqsad;
- muvofiqlik;
- zaruriylik;
- ma'muriy organ ta'sir chorasining mutanosibligi.

Ushbu ko'rsatilgan belgilardan ham ko'rinib turibdiki, ta'sir chorasi ko'zlanayotgan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Ushbu fikr boshqa olimlar tomonidan ham ilgari surilganligi muhim ahamiyatga molikdir.

Ilm-fan nuqtayi nazaridan mutanosiblik prinsipining qo'llanishi masalalari Ruprext Kraussning ilmiy ishlarida keltirib o'tilgan.

U "tor ma'nodagi proporsionallik" atamasini ishlatib, mutanosiblik prinsipining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, mutanosiblik ikki yoki undan ortiq obyektning o'zaro munosabatida aks etuvchi va asosiy huquqlarning me'yordan ortiq cheklanishini bartaraf etish usuli bo'lgan muayyan "test"ni ifodalaydi (Krauss, 1955). Aytish lozimki, ushbu "test" avvalambor manfaatdor shaxslarning huquqlarini cheklamasa, bu xulosa o'rinnidir.

O'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy asarlariga murojaat qiladigan bo'lsak, K. G'oziyev va A. Axrorovlar mutanosiblik prinsipiga ma'muriy ish yuritish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan ta'sir choralari ma'muriy organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerakligi to'g'risidagi qonuniy normaning ta'rifini ishlatganlar (Goziyev & Axrorov, 2023).

Yuqoridagi ta'rifni to'ldirgan holda J. Nematov "mutanosiblik prinsipi ma'muriy organ tomonidan qo'llanadigan har bir ta'sir chorasi xususiy shaxs xatti-harakati va mavjud holatlarning og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarini inobatga olgan holda mos va yetarli bo'lishi, ortiqcha qiyinchilik tug'dirmasligi lozimligida ham namoyon bo'ladi" (Nematov, 2015), – deb e'tirof etgan. Bundan tashqari, davlat organlari "kam ahamiyatli xatti-harakat va mavjud holat uchun yengilroq va og'irroq xatti-harakat va mavjud holat uchun og'irroq ta'sir chorasi qo'llanishini anglatishi" (Nematov, 2015) haqida xulosa qilgan. Albatta, bu fikrlarga qo'shilsa bo'ladi, chunki ta'sir chorasining yengil yoki og'irroq bo'lishi ko'zlangan maqsadga mos va yetarli bo'lishi lozimligini qayd etish o'rinnidir.

Davlat organlari va xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlan-

gan bo'lib, 7-moddada belgilangan mutanosiblik prinsipi muhim ahamiyatga egadir. Chunki ushbu prinsip orqali davlat organlari tomonidan xususiy shaxslarga nisbatan ta'sir chorasi nazarda tutilgan qarorlar qabul qilinayotganda manfaatdor shaxslarning huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlash maqsadi ko'zlangan. Quyida davlat organlari tomonidan mutanosiblik prinsipiga oid qonun buzilishini quyidagi misol (A Unified Electronic System for Developing, Coordinating and Registering Resolutions Adopted by Local Public Authorities, n.d.) orqali ko'rib chiqsak.

Bo'stonliq tumani hokimining 2018-yil 29-noyabrdagi 11-son hamda Toshkent viloyati hokimining 2019-yil 9-fevraldagi 23-son qarorlari bilan "JURABEK AGROIMPEKS" MCHJga o'ziga tegishli bo'lgan 1,8 gektar yer maydonida 5 mln AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilib, 24 oy muddatda 50 ta ish o'rni yaratilgan holda 300 o'rinli oilaviy dam olish oromgohi barpo etish va qolgan 1,2 gektar yer maydonida lavanda o'simligini ekishga ruxsat berilgan.

Bo'stonliq tumani hokimining 2018-yil 29-noyabrdagi 11-son hamda Toshkent viloyati hokimining 2019-yil 9-fevraldagi 23-son qarorlarini qabul qilishda asos qilib ko'rsatilgan Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 20-yanvardagi 16-son, 2009-yil 18-fevraldagi 45-son hamda 2013-yil 25-fevraldagi 54-son qarorlari Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-iyundagi 493-son "Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berishning zamonaviy va shaffof mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 2018-yil 1-iyuldan o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilgan.

Bo'stonliq tumani hokimining 2018-yil 29-noyabrdagi 11-son hamda Toshkent viloyati hokimining 2019-yil 9-fevraldagi 23-son qarorlarida yer fondi toifasini boshqasiga o'tkazish nazarda tutilmagan. Adliya vazirligi huquqiy ekspertizasi tomonidan

berilgan xulosada Bo'stonliq tumani hokimining 2018-yil 29-noyabrdagi 11-son hamda Toshkent viloyati hokimining 2019-yil 9-fevraldagi 23-sonli qarorini rasmiylashtirishda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilgani ko'rsatilgan.

"JURABEK AGROIMPEKS" fermer xo'jaligi binolarni qurib o'zidan xarajat qilib kelgan, biroq boshlagan ishlari boshi berk ko'chaga kirib qolgan. Sihatgoh qurilishi to'xtab, binolar bitmay qoldi. Xususan, "JURABEK AGROIMPEKS" fermer xo'jaligi tasarrufidagi yerdan hech qanday daromad olmagan holda har yil uchun 80 million so'mdan hisoblangan yer solig'ini muntazam to'layapti. Shunday bo'lsa-da, tuman kadastr idorasi "Adliya vazirligining xulosasi bor" degan vaj bilan shu kungacha kadastr yig'majildini xo'jalikka taqdim etmagan.

Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, "JURABEK AGROIMPEKS" MCHJ tomonidan qarorga asosan yer ajratilgandan so'ng barcha qurilish ishlarini boshlab yuborgan. Bunda adliya organining xulosasi asosida ushbu MCHJga berilgan qaror bekor qilingan, lekin hokim tomonidan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasidagi qoidasiga amal qilinmayapti. Yerni ajratish to'g'risidagi qarorni bekor qilayotgan yangi qaror chiqarilayotganda ma'muriy organ ta'sir chorasining xususiy shaxsning manfaatiga zid ravishda qabul qilgan. Bunda, birinchidan, "JURABEK AGROIMPEKS" MCHJning qarorga ishonib sarflagan xarajatlari, ikkinchidan, ushbu MCHJ tirikchilik manbaidan mahrum etilayotganligi e'tiborga olinmayapti. Bu esa manfaatdor shaxsga qiyinchilik tug'dirayotganligidan dalolatdir. Va natijada ma'muriy organning ta'sir chorasi ko'zlangan maqsadga mos bo'lmay qolyapti.

Biroq eng katta muammo ishni ma'muriy sudda ko'rib chiqishda yuzaga keladi, chunki sudlar Konstitutsiyada qonun ustuvorligi prinsipi orqali kafolatlangan hokimiyatning taqsimlanishi prinsipi asosida faqat ijro etuvchi hokimiyat harakatlarining qonuniyligini

tekshirishga haqlidir, ammo uning qarorlarining maqsadga muvofiqligi sud tekshiruviga kirmaydi (Pudelka, 2017). Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 15-moddasi 2-qismida "sud ma'muriy ishni ko'rayotganda ma'muriy organning hujjati qonunga muvofiq emasligini, shu jumladan, hujjat vakolat doirasidan chetga chiqilgan holda qabul qilinganini aniqlasa, qonunga muvofiq qaror qabul qilishi" haqida norma belgilangan bo'lib, ko'rish mumkinki, sud qabul qilinayotgan qarorning maqsadga muvofiqligi (fuqarolarning huquqlariga zarar yetkazmasligi ular uchun ijobiy oqibat tug'dirishi) tekshirilmaydi.

Mutanosiblik prinsipining ma'muriy sudlardagi ishlarga e'tiborimizni qaratib, yana bitta misol (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2022) orqali sud amaliyotida mutanosiblik prinsipining qo'llanishiga oid keysni ko'rib chiqsak.

Arizachi B. Ulmasov sudga ariza (shikoyat) bilan murojaat qilib, unda javobgar Bo'stonliq tumani hokimining 2019-yil 28-maydagi 4428-sonli qarorining 3-bandini "ushbu qaror belgilangan tartibda Toshkent viloyati hokimi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng" jumlasini haqiqiy emas deb topishni va Bo'stonliq tumani hokimligi mansabdor shaxslarining harakatsizligini qonunga xilof deb topishni, Bo'stonliq tumani hokimligi zimmasiga Bo'stonliq tumani hokimining 2019-yil 28-aydagi 4428-sonli qarorini Xalq deputatlari tuman kengashi muhokamasiga kiritish majburiyatini yuklashni so'ragan.

Ish holatlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-iyun kunidagi 483-sonli qarori asosan, Toshkent viloyati hokimligining Bo'stonliq tumani Sijjak qishlog'i Sarbog' va Boladala mahalla fuqarolar yig'inlari hududidagi Qaynarsoy va Shaydon ko'chalaridagi yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun zaxiraga qabul qilish haqidagi taklifi ma'qullangan.

Mazkur qarorga ko'ra, Toshkent viloyati hokimligi zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 29-maydagi 97-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablariga muvofiq yer uchastkalari olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar kompensatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan hamda davlat va jamoat ehtiyojlari uchun jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli yer uchastkalari olib qo'yilishi munosabati bilan Sijjak va Nanay qishloqlari hududidan tegishli yer maydonlari ajratilishiga ruxsat berilgan.

Bo'stonliq tumani hokimining 2018-yil 18-iyul kunidagi 1827-sonli qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-iyundagi 483-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Bo'stonliq tumani Sarbog' va Nanay mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi tuman zaxira yerlari tarkibidan jami 12 gektar sug'oriladigan (bog'zor va uzumzor) yer maydonlari uy-joylari buzilishga tushgan fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi bilan o'rniga o'rin (har bir uy-joyi buzilishga tushgan fuqaroga 0,06 gektardan) yer uchastkasi ajratib berilishi belgilangan.

Toshkent viloyati hokimining 2019-yil 25-martdagi 226-sonli qarori bilan Bo'stonliq tumani hokimining 2018-yil 18-iyulda 1827-sonli qarori tasdiqlangan hamda Bo'stonliq tumani Sarbog' va Nanay mahallalari hududidan jami 12 gektar, shundan 11,5 gektar qishloq xo'jaligida foydalaniладigan sug'oriladigan, 0,5 gektar yaylov yer maydonlari Sarbog' mahallasi hududidagi uy-joylarni davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olinishi munosabati bilan fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun ajratib berilishi belgilangan.

Bo'stonliq tumani hokimining 2019-yil 28-maydagi 4428-sonli qaroriga asosan, fuqaro B. Ulmasovga tegishli Sarbog' mahalla fuqarolari yig'ini Qaynarsoy mahallasidagi uy-joylari buzilishi munosabati bilan o'rniga-o'rin "Nanay" massivi hududidan ajratil-

gan 9 gektar yer maydonidan bosh rejaga asosan 58-raqamli 0,06 gektar (600 kv.m) yer maydoni yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi bilan ajratib berilgan.

Qarorning 3-bandida Toshkent viloyati Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat korxonasi Bo'stonliq tumani filiali zimmasiga ushbu qaror belgilangan tartibda Toshkent viloyati hokimi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng belgilangan tartibda hujjatlarni rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish vazifasi yuklatilgan.

Qarorning 5-bandida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asoslanib mazkur qaror Xalq deputatlari tuman kengashi muhokamasiga kiritilishi belgilangan.

Shuningdek, Bo'stonliq tumani prokurori tomonidan 2020-yil 5-iyuldagi 10.2-20-sonli protest bilan Bo'stonliq tumani hokimining 2018-yil 18-iyuldagi 1827-sonli qarorini bekor qilishni so'ragan. Bo'stonliq tumani hokimining 2020-yil 10-iyuldagi 1697-sonli qarori bilan Bo'stonliq tumani prokurorining protestini ko'rib chiqish yakuni bo'yicha 2018-yil 18-iyuldagi 1827-sonli qarori bekor qilingan.

Sud yuqoridagilarni hisobga olgan holda Bo'stonliq tumani hokimining 2019-yil 28-maydagi 4428-sonli qarorining 3-bandidagi "Toshkent viloyati hokimligidan so'ralgandan so'ng" degan jumlasini haqiqiy emas deb topilib, Bo'stonliq tumani hokimligi mansabdor shaxslarining tuman hokimining 2019-yil 28-maydagi 4428-sonli qarorini Xalq deputatlari tuman kengashi muhokamasiga kiritilmaganlikda ifodalangan harakatsizligi qonunga xilof deb topilgan. Bo'stonliq tumani hokimligi zimmasiga amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda Bo'stonliq tumani hokimining 2019-yil 28-maydagi 4428-sonli qarorini Xalq deputatlari tuman kengashining muhokamasiga kiritish majburiyati yuklatilgan.

Yuqoridagi keysdan ko'rinadiki, sudlarning amaliyotida hattoki birinchi instansiya

sudlarida ham ayrim hollarda mutanosiblik prinsipini qo'llamaslik masalasiga e'tibor berilmay, apellatsiya instansiyasida aniqlanyapti. Bunda hokimiyat qarorni bekor qilayotganda, ya'ni ta'sir chorasini belgilayotganda ko'zlangan maqsad olib qo'yilgan yer uchastkasining kompensatsiya qilish maqsadida yangi yer uchastkasini ajratish ekanligi va shu bilan manfaatdor shaxsning manfaatini hisobga olmayotganligi, aynan mutanosiblik prinsipining buzilishiga olib kelyapti. Hokimiyat tomonidan tanlangan ta'sir chorasi ko'zlangan maqsadga mos kelmay, manfaatdor shaxs bo'lgan B. Ulmasovga qiynchilik tug'dirmoqda.

Undan tashqari, yuqorida manfaatdor shaxsning huquqi nafaqat mutanosiblik prinsipi, balki "qonuniylik" va "byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi" prinsiplari bilan birgalikda buzilishiga yo'l qo'yilganini ko'rish mumkin. Shu o'rinda aytish lozimki, qabul qilinayotgan qarorning manfaatdor shaxs uchun foydali bo'lishi (Solovey, 2015) ham joiz. Bu misolda ham ma'muriy organining ta'sir chorasi manfaatdor shaxsning huquqini buzib, uy-joydan mahrum bo'lishiga olib kelyapti.

Sud organlarining kontrol nuqtayi nazaridan olib boradigan faoliyatida ham mutanosiblik prinsipining ahamiyati muhim bo'lib, bunda, albatta, qabul qilinadigan qarorning ko'zlangan maqsadga (nizoni hal qilish bo'yicha) mutanosib chora ko'rilishi maqsadga muvofiq. Bu haqda xorijiy davlatlarning sud amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Gretsiyada postsovet davlatlaridan farqli ravishda sud ma'muriy organlari tomonidan chiqarilgan nafaqat ma'muriy akt, balki ular faoliyatining umumiy maqsadiga va mutanosiblik prinsipiga mosligini ham tekshiradi (Kareklas, 2015).

Xulosa

Mutanosiblik va prinsip so'zning birikmasi davlat boshqaruvini amalga oshirish chog'ida inson huquq va erkinliklariga putur yetkazmagan holda proporsionallikni saqlab,

davlat va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi asosiy qoidalar tizimi nazarda tutilishini ta'kidlash lozim.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytish mumkinki, mutanosiblik prinsipi qonunda ko'rsatilgan ma'muriy organ tomonidan ko'zlangan maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'libgina qolmay, balki ushbu ta'sir chorasi qonun doirasida zaruriy va, albatta, xususiy shaxslarning manfaatlariga (imkon qadar) zarar yetkazmasligi kerak.

Ma'muriy ixtiyoriylik prinsipi bevosita mutanosiblik prinsipi bilan bog'liq bo'lib, ma'muriy organ ma'muriy akt chiqarayotganda yoki muayyan harakat (harakatsizlik) ni sodir etayotganda, albatta, tanlanayotgan ta'sir chorasining mutanosiblik prinsipi nuqtayi nazaridan o'lchab, keyin qabul qilishi (harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirishi) maqsadga muvofiq.

Ma'muriy tartib-taomillar va sud ishi yurituvining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mutanosiblik prinsipi ommaviy va xususiy manfaatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishga qaratilgan.

Mutanosiblik prinsipini nafaqat ma'muriy tartib-taomillar sohasida, balki ma'muriy huquq fanining predmeti bo'lgan davlat organlari o'zaro munosabatlariga ham tatbiq etish lozim. Chunki davlat organlarining faoliyati ommaviy va xususiy manfaatlarni himoya qilishga qaratilganini ta'kidlash lozim.

Xulosa qilish mumkinki, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga ham sudlarning ma'muriy ish bo'yicha chiqaradigan qarorlari ham mutanosiblik prinsipi o'lchovi bilan chiqarilsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaati bir muncha yuqoriroq darajada himoyalangan bo'lar edi. Shu maqsadda kodeksning 2-bobiga mutanosiblik prinsipiga oid normani kiritish lozimdir.

REFERENCES

1. A Unified Electronic System for Developing, Coordinating and Registering Resolutions Adopted by Local Public Authorities (n.d.). *Fundamentals of Public Administration*. https://e-qaror.gov.uz/search?category_id=9/
2. Chirkin, V. E. (Ed.). (2011). *Constitution in the XXI Century: Comparative Legal Research* (In Russian). Moscow: Norma, INFRA-M Publ.
3. Fosskule, A. (2015). Printsip sorazmernosti [Principle of Proportionality] (In Russian). *Comparative Constitutional Review*, 1(104), 159–163. <https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-sorazmernosti/>
4. Goziyev, K. J., & Axrorov, A. A. (2023). *Ma'muriy huquq* [Administrative Law] (In Uzbek). Tashkent: TSUL Publ.
5. Kareklas, S. (2015). Review on the administrative justice system of Greece (In Russian). In *Public Law Yearbook 2015: Administrative Process* (464 p.). Moscow: Infotropik Media.
6. Krauss, von R. (1955). *The principle of proportionality. In its significance for the necessity of the means in administrative law* (In German). (Pp. 14–15). Hamburg.
7. Lerche, P. (1999). *Excessiveness and constitutional law: On the legislator's commitment to the principles of proportionality and necessity* (In German). Goldbach.
8. Madvaliyev, A. (Ed.). (2006). *An explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vol. 2, "L", "M" letters, 654 p.). (In Uzbek). Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
9. Madvaliyev, A. (Ed.). (2008). *An explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vol. 3, "P", "S" letters, 688 p.). (In Uzbek). Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.

10. Nematov, J. (2015). *O'zbekiston Respublikasida ma'muriy protseduralar institutini takomillashtirish (qiyosiy huquqiy tahlil)* [Improving the Institute of Administrative Procedures in the Republic of Uzbekistan (Comparative Legal Analysis)] (In Uzbek). [Monograph]. Tashkent: Lesson Press.
11. Podmarev, A. A. (2021). Proportionality as a constitutional principle of restricting the rights and freedoms of man and citizen in the Russian Federation (In Russian). *Izvestiya of the Saratov University. Series: Economics. Management. Law*, 21(1), 83–91.
12. Pudelka, J. (2017). The concept of discretion in German administrative law and its differentiation from judicial discretion (In Russian). *Vestnik of St. Petersburg University. Law*, 8(4), 443–451. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-usmotreniya-v-administrativnom-prave-germanii-i-ego-otgranichenie-ot-sudebnogo-usmotreniya/>
13. Solovey, Yu. (2015). Judicial control over administrative discretion (In Russian). In *Public Law Yearbook 2015: Administrative Process* (464 p.). Moscow: Infotropik Media.
14. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan (2022). *Court decisions published by administrative courts on the Internet (Works performed before 2022)*. https://public.sud.uz/report/ADMINISTRATIVE_OLD/
15. Voßkuhle, A. (2007). Basic knowledge of public law: The principle of proportionality (In German). *Juristische Schulung [JuS] - Legal Training*, 47(5), 429–431.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, M. Sharifova,

Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.

TDYU tipografiyasida chop etildi.